INTENSIV OLMANI PARVARISHIDAGI AGROTEXNIK TADBIRLAR

Sarimsakov Maqsudxon Musinovich
Amonov Dilshod Hasanovich
Murodov Otabek Ulug‘bekovich
Ruziyeva Mavluda Anvarovna
Buxoro davlat texnika universiteti
E-mail: murodovou@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22979765

Annotatsiya. Ushbu maqolada suv tanqisligi sharoitida takroriy ekinlardan yuqori va sifatli hosil yetishtirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida intensive bog’ni tomchilatib sug‘orish ishlari bo‘yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar davomida Buxoro viloyatining sizot suvlari sathi 1.5–2.0 mertda joylashgan o‘tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekilgan intensiv olmaning Cripps Pink navining hosildorligiga sug‘orish tartiblarini ta’siri o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar natijalari keltirilgan.
Kalit so‘zlar: tomchilatib sug‘orish, sizot suvlari sathi, intensiv bo‘g‘, Golden devishes, sug‘orish tartibi, ChDNS, hosildorlik.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований по применению капельного орошения в интенсивных садах, направленных на получение высококачественного урожая и улучшение мелиоративного состояния земель в условиях дефицита водных ресурсов. Описаны эксперименты, проведенные в Бухарской области на лугово-аллювиальных почвах с уровнем грунтовых вод 1,5–2,0 м, целью которых было изучение влияния режимов орошения на продуктивность яблони сорта «Криппс Пинк» в условиях интенсивного сада.
Ключевые слова: капельное орошение, уровень грунтовых вод, интенсивный сад, «Голден Делишес», режим орошения, НВ (наименьшая влагоемкость), продуктивность.

Abstract. This article presents research findings on drip irrigation in intensive orchards, aimed at producing high-quality yields from subsequent crops and improving the reclamation status of the land under conditions of water scarcity. The study details experiments conducted in the Bukhara region—on meadow-alluvial soils with a groundwater level of 1.5–2.0 meters—to investigate the impact of irrigation regimes on the productivity of the 'Cripps Pink' apple variety grown in an intensive orchard.
Keywords: drip irrigation, groundwater level, intensive orchard, Golden Delicious, irrigation regime, FC (Field Capacity), productivity.

Kirish. Bugungi kunda suv resurslarining cheklanganligi, suvga bo‘lgan talabning ortishi sharoitida qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish o‘ta muhim tadbirlardan hisoblanadi. Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yetishtirilayotgan hosilning asosiy qismi sug‘oriladigan maydonlardan olinmoqda. O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlar umumiy yer maydonining 1-2 foizini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dala tajribalari 2023-2024 yillar davomida Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi «Garden Buxoro Agroklaster» klaster xo‘jaligiga qarashli intensiv olma bog‘larida o‘tkazildi.

Vobkent tumanida joylashgan «Garden Buxoro Agroklaster» klaster xo‘jaligi dalalari jug‘rofiy joylashishi bo‘yicha $39^{0}43^{1}$ kenglik, $64^{0}32^{1}$ uzunlikda hamda dengiz sathidan 223 m balandlikda joylashgan. Tajriba o‘tkazilgan maydon tuproqlari qadimdan sug‘orilib kelinayotgan, o‘tloqi allyuvial tuproqlardan iborat bo‘lib, mexanik tarkibiga ko‘ra o‘rta va og‘ir qumoqli, yer osti suvlar sathi chuqur (2,0-3,5 m) joylashgan.

2023 yil hosili uchun nazorat varianti dalasi 2022 yilning 26 noyabrida shudgorlash, sho‘r yuvish ishlari amalga oshirilgan. 2023 yilning fevral oyida daraxtlarga shakl berish va fosforli o‘g‘itlar bilan oziqlantirish, 9-11 aprel kunlari daraxtlarni kasallik va zararkunanda hashoratlardan himolash maqsadida kimyoviy preparatlar sepildi.

1-jadval

Mevali bog‘larni parvarishlashda o‘tkazilgan agrotexnik tadbirlar

t/r	Sug‘orish usuli	Amalga oshirilgan agrotexnik tadbirlar										
		Shudgordan oldin mineral o‘g‘it solish	Shudgorlash	Sho‘r yuvish	Daraxtlarga shakl berish	Daraxtlarga kimyoviy ishlov berish	Hashoratlarga qarshi kurashish:	Bahorgi shudgorlash	Er tekislash va egat olish	Sug‘orish ishlari	Bog‘ oralariga ishlov berish	Hosilni yig‘ib olish
1	Nazorat dalasida	26.11	24.11	13.12	20.02	09.04	17.04	19.04	21.04	08.05	12.05	25-26.08
2							03.05			21.05	24.05	
3							23.06			10.06	14.06	
4										26.06	28.06	
5										17.07	20.07	
6										11.08	14.08	
1	TST qo‘llanil-gan dalada	26.11	24.11	13.12	20.02	09.04	17.04	19.04	21.04	08.05		25-26.08
2							03.05			13.05		
3							23.06			22.05		
4										03.06		
5										12.06		
6										21.06		
7										03.07		
8										14.07		
9										27.07		
10										07.08		
11										19.08		

Mevali daraxtlarning gullash va meva tugish davrida, 16-17 aprel kunlari hashoratlarga qarshi kimyoviy preparatlar qo‘llanildi. 19-21 aprel kunlarida bog‘ oralarida bahorgi shudgorlash, yer tekislash va sug‘orish egatlari ochish ishlari amalga oshirildi. 8 mayda birinchi sug‘orish ishlari o‘tkazildi. Bog‘ qator oralariga chuqur yumshatgich orqali nazorat

dalasida 4 marta ishlov berildi. Pishib yetilgan meva hosilini terib olish ishlari qo‘l kuchi yordamida 25-26 avgust kunlari amalga oshrildi.

Tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish asosan vegetatsiya davrida suv resurslari o‘rtacha ko‘p yil taqchil bo‘lgan sug‘oriladigan yerlarida, katta harajatlar qilinadigan nasos bilan sug‘oriladigan mevali bog‘lar, uzumzorlar, sabzavot-poliz mahsulotlari va boshqa yuqori rentabelli ekinlar uchun ajratilgan yerlarida, shuningdek, irrigatsiya eroziyasiga uchragan katta nishabli yerlarida va sho‘rlanmagan va kam sho‘rlangan yengil tuproqli yerlarda amalga oshirilganda yaxshi samara berishligi mutaxassis va tadqiqotchilar tomonidan tavsiya etilgan.

2-jadval

Akad. M.Mirzaev nomidagi BUVITI tavsiyasi bo‘yicha

Meva turlari	Sug‘orishlar soni	Sug‘orishlar me’yori, m^3/ga	
		Tuproq turlari	
		Bo‘z tuproqlar	Yer osti suvlari yaqin joylashgan qum shag‘alli tuproqlar
Yosh urug‘li bog‘lar	8-10	500	350
Yosh danakli bog‘lar	10-12	500	300
Hosilga kirgan urug‘li va danakli bog‘lar	4-6	800-1000	300-500
Urug‘li va danakli bog‘larda qishki yaxob suvi berish	2-3	1500-2000	-

Xulosa. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ma’lumotlar hamda fermer xo‘jaligining tuproq iqlim sharoitini inobatga olgan holda quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Biz tajriba olib borayotgan Vobkent tumanida joylashgan «Garden Buxoro Agroklaster» klaster xo‘jaligi bog‘ maydonlari sahrodasht tumanlar sarasiga kirib, turli nishablikka ega bo‘lgan dalalardan iboratdir. Demak ushbu bog‘larda tomchilatib sug‘orish usulini qo‘llash birinchidan – yer va suv resurslaridan foydalanish samadorligini oshiradi, ikkinchidan sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini barqarorlashtiradi, ya’ni sizot suvlarining ko‘tarilishini oldi olinadi hamda ikkilamchi sho‘rlanishga barham beriladi, natijada tuproq unumdorligi saqlanib qoladi va muntazam oshirish imkoni vujudga keladi, uchinchidan – bog‘zorlarni parvarishlash uchun sarflanayotgan turli sarf harajatlarni bir necha martaga kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murodov O. U., Kattaev B. S., Saylikhanova M. K. Efficiency use low pressure drip irrigationof in small gardens //Школа Науки. – 2020. – №. 2. – С. 6-9.
2. Murodov O U, Kattaev B S, Saylixanova M K. // The use of sprinkler irrigation in the cultivation of agricultural crops // " Proceeding of The ICECRS.Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution 4.0 "conference. - Indonesia 2020.
3. Murodov Otabek Ulugbekovich, Kattayev Bobir Sobirovich, Saylixanova Maftuna Komiljonovna, & Ibodov Islom Nizomiy o`g`li. (2020). Smart irrigation of agricultural

crops. Middle European Scientific Bulletin, 3, 1-3. https://doi.org/10.47494/mesb.2020.3.16

4. Murodov Otabek Ulugbekovich, Saylixanova Maftuna Komiljonovna, Kattayev Bobir Sobirovich, Muzaffarov Muxriddin Murodovich. Determination of efficiency of groundwater use in irrigation of millet planting, Euro-Asia Conferences, 2021/3/31, 131-134.
5. Ro'Ziyeva M. A., Najmiddinov M. M. Sho'rlik darajasi turlicha bo'lgan suvning jamadon tipidagi ko'chma quyosh suv chuchiktgich qurilmasining unumdorligiga ko'rsatadigan ta'siri //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 218-221.
6. Муродов О. У., Каттаев Б. С., Сайлиханова М. К. Қишлоқ хўжалигида томчилатиб суғориш технологияларидан фойдаланиш самарадорлиги //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 177-184.
7. Ulugbekovich, M. O., Sobirovich, K. B., & Komiljonovna, S. M. (2025). EFFICIENCY USE LOW PRESURRE DRIP IRRIGATIONOF IN SMALL GARDENS. Лучшие интеллектуальные исследования, 58(2), 175-182.
8. Murodov, O. U., Teshayev, U. O., Amrulloev, O. I., & Islomov, S. U. (2021). Determining the efficiency of the use of underground water in irrigation of tarik. Экономика и социум, (3-1 (82)), 187-191.